



O'SMIRLARNING ULG'AYISHIDA OILAVIY NIZOLARNING SALBIY OQIBATLARI.

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti sirtqi "Pedagogika va psixologiya"
yo'nalishi 402-guruh talabasi
Ziyomiddinova Gulnoza Akramovna*

Annotatsiya: ushbu maqolada oilaviy nizolar ta'sirida ulg'ayib borayotgan o'smirlarning psixologik holatlari hamda bu nizolarning o'smirlar hayotida bir qancha noxush holatlarni, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganligi va unga yechim izlash choralar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oilaviy nizolar, o'smirlar, salbiy oqibatlar, agressiv, odamovilik.

Bugungi kunda oilalarda ko'pgina nizolar kelib chiqishi natijasida oilalarga darz ketmoqda. Turli bahonalar, arzimagan sabablar, er-xotin o'rtaсидаги oddiy kelishmovchiliklar oqibatida mamlakatimizda ajrimlar soni tobora ortib bormoqda. Buning natijasida eng avvalo farzandlar ma'naviy jarohat olmoqdalar. Ayniqsa o'smir yoshdagi bolalarga bunday holatlar kuchli ta'sir qiladi. Ota-onalarning doimiy janjallari, bir-birlarini fikr -mulohazalarini inobatga olmasliklari, tushunmovchiliklar, moddiy yoki ma'naviy tomondan kelib chiquvchi muammolar tufayli oila jang maydoniga aylanib qoladi. Buning natijasida o'smirlar o'zlarining psixologik, ijtimoiy va fiziologik rivojlarida zaif bo'ladilar va oiladagi keskinlik ularning kelajakdagи hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oilaviy nizolar o'smirlarda xavotirlik, tushkunlik o'ziga ishonchsizlik, masuliyatsizlik va boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.



O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

O'smir xulq –atvoridagi salbiy o'zgarishlar sabablarini ijtimoiy omillar bilan bog'lagan V.M.Karimovaning shogirdi A.T.Kadimova – o'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida oila muhitining xususan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ularning farzand tarbiyasidagi masuliyati hamda har bir oila a'zosining ijtimoiy, psixologik mavqeい, oilaviy munosabatlarga tayyorlik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etadi. Shuningdek o'smirlarda aniqlangan nizokashlik to'g'risidagi tasavvurlar o'zaro munosabatlarga nafaqat ota-onalar bilan balki, aka-ukalar , opa-singillar o'rtasidagi muomala xarakteriga ham bog'liq ekanligini ham ta'kidlaydi.(“Rivojlanish psixologiyasi” Pedagogik psixologiya kitobi 361-bet.).

Oilaviy muhit doimiy janjallar, oilaviy nizolar, o'smirning hayotini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. ajralishgacha olib boradigan bunday oilaviy nizolar o'smirning tushkun holatga tushishiga, tengdoshlaridan o'zini olib qochishiga odamovi bo'lib qolishiga va oila a'zolariga nisbatan aggressiv munosabatda bo'lishiga olib keladi.

Odamovilik – og'ish bo'lib muloqot doirasining taryishi, atrifdagilar bilan emotsiyal munosabatda bo'lish imkoniyatining kamayishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishda yosh davrlariga xos bo'lган qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi. Bu og'ishning sababi quyidagilar bo'lishi mumkin: uzoq davom etgan stress (masala nota-onaning ajralishi) , hissiy muloqotning yetishmasligi (masalan uzoq vaqt kasalxonada bo'lish yoki bazan bolaning ota-onalar uchun kutilmagan yoki istalmaganligi, ota-onaning bolaga mehr ko'rsatmasligi), hissiy doiranining emotsiyal sferaning o'ziga xos individual patalogik xususiyati (psixik jarayonning sustligi) (“Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi” 384-bet).



Odamovilik bolani ahvolini yanada chuqurlashtiradi, yolg'izlikda yashashga o'rganib qoladi. Bu esa turli noxush holatlarni hattoki suitsidal vaziyatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bunga sabab ota-onalar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, bir-biriga bo'lgan salbiy munosabatlar, o'zaro ajrimlar o'smir tarbiyasida noxush holatlarni keltirib chiqaradi.

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyta jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan soha mutaxassislari o'rganmoqdalar. Ularning e'tibori bu hodisa sabablar, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarni buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. ("Oila psixologiyasi" 184-bet).

Hozirgi kunda ushbu muammolar ming afsuslar bo'sinki dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev – oilaviy ajrimlar soni yuqori bo'lib qolayotganligi achchiq haqiqat ekatligini, o'tgan yili 28 mingdan ziyod oila ajralib ketganligi buning isboti ekanligini takidlab, - "avvallari biror oila ajrashsa mahallada duv-duv gap bo'lardi, butun mahalla oyoqqa turar edi. Ajrim bu – kata fojea albatta barchamizning istagimiz, tilagimiz bitta! Qani endi yurtimizda ajrim degan noxush holatlarning o'zi bo'lmasa.... Oilalar parokanda bolalar tirik yetim bo'lib sarson-sargardon bo'lmasa, men bu



fikrni qayta-qayta aytishdan charchamayman. Oila bu- mehr va baxt qo'rg'oni." – deb ta'kidlaydilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak oila muqaddas dargoh. Oila tinch bo'lsa jamiyat barqaror bo'ladi. Oila negizini ishonch, o'zaro hurmat, sabr- toqat, muhabbat tashkil qilsa oilada tinchlik totuvlik hukm suradi.

Bunday oilada ulg'aygan farzandlar teran fikrli, ta'lim tarbiyali yetuk ma'naviyatli shaxs bo'lib ulg'ayadi. Shunday ekan oilalarning ajralib ketishiga, farzandlarning kelajagiga ta'sir qiluvchi nizolarning oldini olishga ota-onalar, mahalla, maktab befarq bo'lmasligi hamda hamkorlikda faoliyat olib borishi kerak. Bularning barchasi o'zbek oilasida ajrim masalasiga jiddiy e'tiborberish lozimligini va uning oldini olish, salbiy asoratlarni kamaytirish chora tadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish lozimligini ko`rsatadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. "Oila psixologiyasi" Toshkent 2011
G`B.Shoumarov
I.O.Haydarov
N.A.Sog`inov
F.A.Akramova
G.Solihova
G.Niyozmetova
2. "Rivojlanish psixologiyasi pedagogic psixologiya " Toshkent 2018
Z.T.Nisonova
N.G.KAmilova
M.X. Xolnazarova
D.U.Abdullayeva
3. "Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi" Toshkent 2020
L.Olimov
A.Nazarov